



Kulturdoula Stokholm maqsadi tug'ruq paytida sizga o'z ona tilingizda yordam ko'rsatishidir.

Doula sizni va oilangizni tug'ruq paytida qo'llab-quvvatlaydi va tibbiyot xodimlari bilan munosabatlaringizni osonlashtiradi. Doula tug'ruq paytida yordam ko'rsatish bo'yicha o'qitilgan. Shuningdek, shved sog'liqni saqlash tizimini yaxshi biladi. U sizga tug'ruq paytida nimalar bolishini tushuntiradi.

Doula siz/sizning oilangiz bilan homiladorlik davrida bir biringizni yaxshi tanish maqsadida bir yoki ikki marta uchrashishi mumkin. Ushbu uchrashuvlar ish kunlari kunduzi bolib o'tadi.

Doula sizga tibbiy maslahat bera olmasa-da, ammo tug'ruq paytida sizga qo'shimcha yordam yoki dastak kerak bo'lsa u kerakli odamlar bn bog'lanishingizga yordam beradi.

Doula sizga tug'ish jarayoni yaqinlashganda Tug'ruqxona bilan bog'lanishingizga yordam beradi. Doula bilan tug'ruq bo'limida ko'rishasiz. Doya tug'ruq jarayoni boshlanganligini va kasalxonada qolish kerakligini aniqlasa, doula yetib kelib to farzandingiz tug'ilguniga qadar siz bilan qoladi.

Agar doula tug'ruq jarayonida kasal bo'lib qolsa yoki kela olmasa uning o'rniga boshqa hamkasbi keladi.

Shuningdek, doula sizning xohishingizga ko'ra tug'ruq jarayonidan keyin ham Tug'ruqdan keyin bo'limga yoki siznikiga tashrif buyuradi.

- Eng muhimi doulani tayyorgarlik ko'rishiga vaqti bo'lishi uchun tug'ilish boshlangunga qadar uni chaqiring.
- Siz uchun doula xizmatlari mutlaqo bepul.
- Doula siz haqingizdagi ma'lumotlarni sir saqlaydi. O'rtangizdagi barcha gaplar maxfiylikicha qoladi.
- Vaqti kelganda tug'ruqxonaga o'zingiz borishingiz kerak. Agar tug'ruqoldi jarayoni qiyinchiliklarsiz va yaxshi kechayotgan bo'lsa, tug'ruqxonaga borishingiz uchun tez yordam mashinasi chaqirilmaydi.